

KELISHIK SHAKLLARI VA VARIANTLILIGIGA OID METODIK TAVSIYALAR

ToshDO 'TAU

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

3-kurs 312- guruh talabasi

Umirova Ohista

Annotatsiya. Ushbu maqolada 7- sinf Ona tili darsligida berilgan kelishik shakllari mavzusi va uning variantliligi haqida metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. Tobe - hokim, so‘z birikmasi, qo‘sishimcha, bosh kelishik, jadval, gap bo‘lagi.

Kelishiklar ot, olmosh va otlashgan so‘zlarga qo‘silib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lash uchun xizmat qiladigan grammatik shakllar tizimi hisoblanadi. Kelishik qo‘sishchasi tobe so‘z tarkibida bo‘ladi. O‘zbek tilida 6 ta kelishik mavjud bo‘lib, ularning har qaysisining o‘z nomi va shakli bor.¹

1. Bosh kelishik	---
2. Qaratqich kelishik	-ning
3. Tushum kelishik	-ni
4. Jo‘nalish kelishik	-ga, -ka, -qa
5. O‘rin-payt kelishik	-da
6. Chiqish kelishik	_dan

¹ N. Mahmudov, A. Nurmonov. “7- sinf Ona tili darsligi”. Toshkent. 2017. 54 B.

Kelishiklarni o'rgatishda o'quvchilaming gapda so'zlarning bog'lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishslashni o'quvchilar gapda ma'no va grammatik tomondan bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) ajratishga o'rganganlaridan so'ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishslash gapda so'zlarning bog'lanishi ustida ishslash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o'quvchi ot gapda qaysi so'z bilan bog'langanini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so'zlar bilan bog'langanda qo'shimchalar bilan o'zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi.²

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish haqida tushuncha berish bilan o'quvchilarga kelishik qo'shimchalari gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilidagi olti kelishik, ularning nomi, so'roqlari, qo'shimchalari va joylashish tartibi tushuntiriladi. O'quvchilar turlanish bilan kelishiklarning mohiyatidan kelib chiqib gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi va so'z birikmali ajratiladi. Ular gapda bir otning boshqa har xil so'zlar bilan shakl yasovchi qo'shimachalar (ning, -ni, -ga, -da, -dan) yordamida bog'lanishini kuzatadilar, bu qo'shimchalar kelishik qo'shimchalari ekanini, otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish deyilishini bilib oladilar.

Bolalarga kelishiklaming joylashish tartibi, so'roqlari va bosh kelishikdan boshqa kelishiklarning aniq qo'shimchalari mavjudligi darslikda berilgan jadval yordamida tushuntiriladi. Bosh kelishikdagi ot gapda ega vazifasida, boshqa kelishikdagi otlar esa ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi bilan ham tanishtiriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi: o'quvchilar avval gapda ot bog'langan so'zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar; keyin so'roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar.

Bosh kelishik. Maxsus qo'shimchasi yo'q. **Kim? nima? Qayer?** so'roqlarga javob bo'ladi va gapda ega, ot kesim, undalma vazifasida keladi. **Toshkent, bunchalar go'zalsan!**

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi qo'shimchasi **-ning**. Kimning? nimaning? qayerning? so'roqlariga javob bo'ladi. Gapda qaratqich aniqlovchi vazifasida keladi.

² С.Ашировоев, И.Азимов Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Ўқув кўлланма. Т.2012. 176

Qaratqich kelishigi bo‘lgan so‘zning hokim qismida egalik qo‘shimchasining **III shaxs birlik** shakli bo‘ladi. Hurmat kishining uquv-idrokidan keladi.

Tushum kelishik. Tushum kelishigi qo‘shimchasi -ni. **Kimni? nimani? qayerni?** so‘roqlariga javob bo‘ladi va gapda to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Tushum kelishigi qo‘shimchasini olga so‘z doimo gapda **o‘timli fe’lga** bog‘lanadi. Kitobni o‘qidim. She’rni yod oldim.

Jo‘nalish kelishik. Jo‘nalish kelishik qo‘shimchasi -ga, -ka, -qa. O‘rin otlariga qo‘shilsa **qayerga?** so‘rog‘oga javob bo‘ladi va gapda o‘rin holi vazifasida keladi. Payt otlariga qo‘shilsa **qachon?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi gapda payt holi vazifasida keladi. Shaxs va narsa otiga qo‘shilsa **kimga? nimaga?** so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda to‘ldiruvchi vazifasida keladi. U o‘qish niyatida shaharga yo‘l oldi.

O‘rin- payt kelishik. O‘rin-payt kelishik qo‘shimchasi -da. O‘rin joy otlariga qo‘shilsa **qayerda?** so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda o‘rin holi vazifasida keladi. Payt otiga qo‘shilsa **qachon?** so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasida keladi. Shaxs narsa otiga qo‘shilsa **kimda? nimada?** so‘roqlarga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Qadim zamonda bir ulug‘ podshoh bo‘lgan ekan.

Chiqish kelishik. -dan qo‘shimchasi o‘rin joy otiga qo‘shilsa **qayerdan?** So‘rogiga javob berib, gapda o‘rin holi bo‘ladi. Payt otiga qo‘shilsa **qachon?** so‘rogiga javob berib, payt holi vazifasida keladi. Shaxs narsa otiga qo‘shilsa **kimdan? nimadan?** so‘rogiga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Men buy o‘ldan necha martda qishlog‘imga o‘tganman.

Ba’zan tushum kelishigi o‘rnida chiqish kelishigi ishlataligan so‘zlar bo‘lishi mumkin. Unda so‘zning ma’nosida farq bo‘ladi. Tushum kelishigini o;gan so‘z butuni, chiqish kelishigini olgan so‘z qismni bildiradi. **Noni oling – Nondan oling.**

Kelishiklarni o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlar asosida o‘rgatish mumkin.

1-topshiriq. Quyidagi gaplarga kelishiklarni to‘g‘ri qo‘yib yozing.

1. **Kitob** diqqat bilan o‘qidim.

2. U maktab uyg'a qaytdi.
3. Men kutubxona kitob olish uchun bordim.
4. **Opa** telefoni jiringladi.
5. Biz yoz tog'larga sayohat qilamiz.
6. Bu – **do'stim uyi**.

2- topshiriq. Berilgan matnda qatnashgan kelishiklarni toping va ustuncha shaklida yozing. Bahorning iliq kunlarida **bog'da** yurganimda, **qushlarning sayrashi** yuragimga quvonch bag'ishlaydi. **Gullarni** mehr bilan parvarish qilayotgan buvajonimning yuzidagi tabassum go'zal manzara yaratadi. Har kuni ertalab ular **namoz o'qishga** masjidga boradilar. U yerda **do'stlari bilan** uchrashib, suhbatlashadilar. **Tong nurlari ostida** yaltirayotgan gul yaproqlari tabiatning go'zalligini yana bir bor eslatadi. Bu manzara **ko'nglimda** iliq hislar uyg'otadi.

Xulosa: qilib aytganda, 7-sinf yoshidagi o'quvchilar uchun so'zlarni bir biriga bog'lab so'z birikmasi yoki gap tuzish rivojlanayotgan paytda kelishik shakllari mavzusini puxtalik bilan o'rgatish kerak. Har bir qo'shimchani gap bo'laklariga bog'lab o'rganish so'roqlarini to'g'ri bera olish, gap ichidan so'z birikmasini tez topishga o'rgatish kerak. Kelishik mavzusi juda qiziq mazvu, buni o'quvchilarga qiziqarli metodlar bilan o'rgatilsa o'quvchilar tez va qiynalmay o'rganib olishadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. N. Mahmudov, A. Nurmonov. "7- sinf Ona tili darsligi". Toshkent. 2017. 54 B.
2. С.Аширбоев, И.Азимов "Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси". Ўкув кўлланма. Т.2012. 176
3. I. Ziyoyev. "Kelishik formalarining funksional almashinuviga doir". O'A, 1966.
4. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi". Toshkent, 2006.
5. M. Tolipov. Sh. Xudoyberganov, R. Abduqodirov. "Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari". Toshkent, "Tafakkur", 1998.